XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 18 - oktabr VI-62-51-10-214-K/23 Ohangaron shahar hokimligi

Ohangaron shahridagi nomsiz mavjud geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 07-iyundagi 12-3-2653-son murojaatnomasi va Ohangaron shahar istirohat bog‘i va Xotira maydoniga nom berish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 4-iyuldagi 08208-son xati va unga ilova qilingan ekspert komissiyasi xulosasini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 4-iyuldagi 08208-son bayoni va ilova qilingan ekspert xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

Kadastr agentligining 2023-yil 4-iyuldagi Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan 08208-sonli xati va xatga ilova qilingan Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan shahardagi istirohat bog‘i va Xotira maydonini nomlash **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Shahar hokimligi, shahar IIB, shahar Qurilish bo‘limi boshlig‘i, kadastr agentligining shahar bo‘limi, Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali, shahar davlat soliq inspeksiyasi, shahar statistika bo‘limi, shahar moliya bo‘limi shahar davlat xizmatlari markazi va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda yangi nomlangan geografik ob’ektlarni nomini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror “Ohangaron hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish-kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Akilov) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**

Xalq deputatlari Ohangaron shahar
Kengashining
2023-yil 18-oktabrdagi
VI-62-51-10-214-K/23-son qaroriga
1-ilova

Shahardagi istirohat bog‘i va xotira maydonini nomlash yuzasidan berilgan takliflar

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Maydon	Namuna mahalla	**Nomsiz**	**Xotira maydoni**	Xotira- “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normalashtirildi
2	Istirohat bog‘i	Namuna mahalla	**Nomsiz**	**Ohangaron**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq